

**Adonis o'simligining tarqalishi, tarkibi, shifobashlik xususiyatlari**

**Yuldasheva Aziza Azamat qizi**

**Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti talabasi**

**Annotatsiya:** Adonis poyasi tik (20-40 sm), tukli bo'lib, gullab bo'lgandan so'ng tuklari to'kilib ketadi. Barglari qirqma, patsimon, murakkab, poyasining yuqori qismida bandsiz, quyi qismida bandli. Gullari yirik, aktinomorf (to'g'ri), har bir poyacha uchida bittadan gul bo'ladi: gulkosachasi 5 ta ko'k kosachabargdan, gultoji 5-20 ta sariq gulbarglardan iborat. Changchi va urug'chilari ko'p. Gul o'rni konussimon. Adonis aprel- may oyida gullaydi.

**Kalit so'zlar:** Adonis, simarin, adonitoksin, donitoksigenin, strofantidindigitalozid, dezglukoxeyrotoksin

**O'simlilming nomi.** Bahorgi adonis - Adonis vernalis L.; ayiqtovondoshlar - Ranunculaceae oilasiga kiradi.

Bahorgi adonis ko'p yillik, kalta va ko'p boshli ildizpoyali o'q o'simlik. Poyasi bir nechta, tik o'suvchi, shoxlanmagan yoki karn shoxli, serbarg, silliq, bo'yi gullash oldida 5-20 sm, gullab bo'lganidan so'ng 30-40 sm bo'ladi. Bargi oddiy, panjasimon 5 bo'lakka ajralgan, poyada bandsiz ketma-ket o'mashgan. Barg bo'lakchalari ingichka, chiziqsimon, bigizsimon o'tkir uchli. Gullari yakka-yakka joylashgan, sariq rangli, kosachasi 5-8 bargli, toj bargi 10-30ta. Mevasi - ko'p yong'oqli to'p meva.

April-may (ba'zi joylarda iyun) oylarida gullaydi, mevasi iyulda yetiladi.

**O'simlilrning hamma qismi zaharli.**



**Geografik tarqalishi.** Bu o'simlik, asosan, qora tuproqli yerlarda, har xil o'tli cho'llarda, qayinzorlarda, butalar orasida 53 o'sadi. Asosan, bahorgi adonis Ukraina, Belarus, Moldova, Rossiyaning Ovrupo qismining cho'l va o'rmon zonasida, Sibirda, Shimoliy Kavkaz, Volga bo'yi va boshqa yerlarda uchraydi.

**Kimyoviy tarkibi.** O'simlikning yer ustki qismi tarkibida yurak glikozidlari va flavonoidlar bo'ladi. Mahsulotdan simarin (gidrolizlanganda simaroza qandiga va strofantidin aglikonga parchalanadi), adonitoksin (gidrolizlanganda ramnoza qandiga va adonitoksin aglikoniga parchalanadi), strofantidindigitalozid, dezglukoxeyrotoksin va boshqa yurak glikozidlari hamda adonivernit, oriyentinksilopiranozid flavon glikozidlari ajratib olingan.

**Ishlatilishi.** Adonis o'simligining preparatlari yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladi. Adonis preparatlari kumulativ xossaga ega bo'lmagani sababli surunkali yurak porogini davolashda doim ishlatish mumkin (angishvonagul o'simligidan

farqi). Adonis turkestanica va Adonis vernalisdan yurak kasalliklarini davolashda ishlatiladigan adonizid olinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xolmatov H.X., Axmedov o‘.A. “Farmakognoziya” Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 1995 y.
2. Xolmatov X.X., Qosimov A.I., Dorivor o‘simliklar. – Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1994 y.
3. Berdiev E., Axmedov E.T “Evvoyi va o‘rmon dorivor o‘simliklari” fani bo‘yicha maruza matni. Toshkent- 2016 y.
4. Xolmatov H.X., Axmedov o‘.A. “Farmakognoziya” Toshkent, Ibn Sino nashriyoti, 1995 y.

